

# Zamonaviy Jamiyat va Innovatsiyalar

ILMIY NAZARIY JURNAL

ISSN 3060-544X

12

**ZAMONAVIY JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR**

ilmiy-nazariy jurnal

**СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО И ИННОВАЦИИ**

научно-теоретический журнал

**MODERN SOCIETY AND INNOVATIONS**

scientific-theoretical journal

**№ 12-son, 2025-yil**

**Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2025 - yil 24 - sentyabrdagi 375/5-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning disertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.**



## Mundarija /Содержание/Contents:

| Bet | Muallif va maqola nomi                                                                                                                                                                           | Yo'nalishi    |
|-----|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|
| 4   | <b>Djurayev Toshpo'lat Saxiyevich</b><br>O'smirlarning ijobiy xulq-atvorini shakllantirishda yoshlar guruhlari va ijtimoiy muhitning ahamiyati                                                   | Dolzarb mavzu |
| 9   | <b>Atabayeva Nargis Batirovna</b><br>Uyushmagan yoshlar ijtimoiy moslashuvining psixologik omillari                                                                                              | Psixologiya   |
| 14  | <b>Urunov Aziz Shakirovich</b><br>Onativ xulq-atvorning namoyon bo'lishi muammosini huquqiy-psixologik jihatlar                                                                                  | Psixologiya   |
| 19  | <b>Akhmadov Nazir Raxmatovich</b><br>Characteristics of adolescents' demonstration of constructive behavior in a social environment                                                              | Psixologiya   |
| 26  | <b>Xolmo'minova Oygul Jumayevna</b><br>Oilada va kichik yoshdagi boshlang'ich sinf o'quvchilariga maktab va sinfdan tashqari ishlarda iqtisodiy ta'lim tarbiya berish asoslari                   | Pedagogika    |
| 31  | <b>Burxonova Yulduz Isroil qizi</b><br>Yosh oilalarida nikoh va nikohdan tashqari munosabatlar namoyon bo'lishining sabab va omillari.                                                           | Pedagogika    |
| 37  | <b>Xaydaraliyev Abdullo Usmonali o'g'li</b><br>Vatanparvarlik fenomenining psixologik jihatlar                                                                                                   | Psixologiya   |
| 43  | <b>Turganova Nesibeli</b><br>Talabalarda emotsional barqarorlikni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari                                                                                    | Psixologiya   |
| 48  | <b>Axmedov Anvar Diyor o'g'li</b><br>Xorijlik talabalarni akademik moslashuviga ta'sir etuvchi psixologik va pedagogik omillar tahlili                                                           | Psixologiya   |
| 52  | <b>Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna</b><br>Informatikaga oid topshiriqlarni tekshirishda plagiatni aniqlashning intellektual tizimlari                                                         | Pedagogika    |
| 60  | <b>Matchanova Dilbar Yusupboyevna</b><br>Talabalarda Fabbing darajasini o'lchash va uning psixologik ko'rsatkichlar bilan bog'liqligi                                                            | Psixologiya   |
| 64  | <b>Egamova Anbarjon Atanazarovna</b><br>Maktabgacha yoshdagi bolalarda konstruktiv tafakkurni faoliyat jarayonida rivojlantirish                                                                 | Psixologiya   |
| 67  | <b>Abduraxmonov Dilmurod Akramaliyevich</b><br>Bo'lajak pedagoglarda kognitiv va kreativ faoliyatni integratsiyalash orqali kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik asoslari | Pedagogika    |
| 70  | <b>Turg'unov Baxtiyor O'rolovich</b><br>Ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining ahamiyati, maqsadlari va funksional vazifalari                                                  | Pedagogika    |
| 75  | <b>Jo'rayev Sodiqjon Muxammadinovich</b><br>IIV akademik litseyi o'spirin o'quvchilarida kasbiy motivatsiya shakllanishining psixologik xususiyatlari                                            | Psixologiya   |
| 79  | <b>Sadoqat Yo'ldosheva Xamid qizi,</b><br><b>Davlatboyeva Mamlakat Oybek qizi</b><br>Savodxonlik darslarida fe'lni bosqichma-bosqich o'rgatishning metodik modeli (1-4-sinf misolida)            | Pedagogika    |
| 85  | <b>Yusufzoda Shabnami Yunus,</b><br><b>Abayeva Merjen Yakupbayevna</b>                                                                                                                           | Pedagogika    |



|     |                                                                                                                                                                                                                                            |             |
|-----|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
|     | Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning nazariy asoslari                                                                                                          |             |
| 90  | <b>Raximova Shoira Adilbekovna,</b><br><b>Axmadjonova Lobar Otabek qizi</b><br>Boshlang'ich sinf matematika darslarida beriladigan mantiqiy masalalarni jadvallar bilan yechish metodikasi                                                 | Pedagogika  |
| 95  | <b>Yusufzoda Shabnami Yunus,</b><br><b>Atajanova Navbahor Ro'ziboyevna</b><br>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vaqt haqida tushunchani shakllantirish bosqichlari                                                                          | Pedagogika  |
| 100 | <b>Yusufzoda Shabnami Yunus,</b><br><b>Rimbayeva Dinora Zokirbay qizi</b><br>Boshlang'ich sinf matematika darslarida ekologik tarbiya berishda interfaol o'yinlardan foydalanish metodikasi                                                | Pedagogika  |
| 106 | <b>D.K.Mo'minova</b><br>BIG DATA tahlili orqali bo'lajak o'qituvchilarning individual o'quv trayektoriyalarini loyihalash                                                                                                                  | Pedagogika  |
| 112 | <b>Raximov Azizbek Normurodovich</b><br>Buxoro jadidlarining ma'rifiy faoliyati va undagi vatanparvarlik g'oyalari                                                                                                                         | Pedagogika  |
| 117 | <b>Rustamova Nigora Rustamovna</b><br>Pedagogik mahorat va muomala madaniyati                                                                                                                                                              | Pedagogika  |
| 121 | <b>Saidmuratova Maloxat Baxtiyarovna,</b><br><b>Abdullayev Faxriddin Kamoladdin o'g'li</b><br>Shaxsning mustaqil fikrlashi va o'z-o'zini boshqarishi tushunchalari tahlilining psixologik mohiyati                                         | Pedagogika  |
| 126 | <b>Rajabova Lobar Madiyorovna</b><br>"Tarbiya" fanini o'qitishning jamiyat hayotidagi amaliy ahamiyati                                                                                                                                     | Pedagogika  |
| 130 | <b>Samarova Shoxista Rabidjanovna</b><br>O'quvchilarda mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda psixodiagnostik metodlarning ahamiyati                                                                                               | Psixologiya |
| 135 | <b>Kayumova Nazokat Rashitovna</b><br>Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning adaptiv dasturiy ta'minotning zamonaviy raqamli pedagogika va individualizatsiya tamoyillariga asoslangan takomillashgan tarkibiy tuzilmasi | Pedagogika  |
| 146 | <b>Asranbayeva Munajatxon Xalimjanovna</b><br>Gerontopedagogika asosida ta'lim muassasalarida pedagogik jamoa barqarorligini ta'minlash yondashuvlari                                                                                      | Pedagogika  |
| 151 | <b>Bobonazarov Orif Abrayqulovich</b><br>Jadidchilik pedagogikasi va zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvning o'zaro uyg'unligi: nazariy va amaliy tahlil                                                                                   | Pedagogika  |
| 156 | <b>Muxammadiyev Baxtiyor Jurayevich</b><br>O'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari                                                                                              | Pedagogika  |
| 161 | <b>Shukurova Nafisa Alisherovna</b><br>O'quv mashg'ulot guruhi qisqa masofaga yuguruvchilarni musobaqa oldi tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirish                                                                                   | Pedagogika  |
| 165 | <b>Bolbekova Ug'iloy Jaloliddinovna</b><br>Mutaxassis talabalarining ingliz tilida gapirish ko'nikmasini yuqori darajaga chiqarishda shadowing ta'lim texnologiyasining ahamiyati                                                          | Pedagogika  |
| 170 | <b>Tovboyeva Nargiza Xonnazar qizi</b><br>O'smirlar o'rtasidagi psixologik zo'ravonlikning asosiy ko'rinishlari va ularning psixik zo'riqlashga ta'siri                                                                                    | Psixologiya |
| 174 | <b>Murodova Barno Kamalxodja qizi,</b><br><b>Suvonqulova Zarina Habibullo qizi</b><br>Salohiddin Soqib adabiy merosida tasavvufiy qarashlar                                                                                                | Pedagogika  |
| 180 | <b>Boynazov Zafar O'ral o'g'li,</b><br><b>Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish</b>                                                                                                                | Psixologiya |
| 185 | <b>Boboqulova Shahnoza Baxridinovna</b>                                                                                                                                                                                                    | Pedagogika  |



|     |                                                                                                                            |                    |
|-----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------|
|     | Ingliz tili darslarida talabalarning sotsiolingvistik kompetentligini rivojlantirish usullari va ularni baholash mezonlari |                    |
| 189 | <b>Xaytova Farida Kuchkarovna</b><br>Koʻzi ojiz bolalar nutqdagi kamchiliklarini korrektsiyalash usullari                  | <b>Psixologiya</b> |



Xaytova Farida Kuchkarovna  
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti  
Mustaqil izlanuvchisi  
E-mail: [Fhaitova35@Gmail.Com](mailto:Fhaitova35@Gmail.Com)

## KO'ZI OJIZ BOLALAR NUTQDAGI KAMCHILIKLARINI KORREKSIYALASH USULLARI

**Annotatsiya.** mazkur ilmiy maqolada ko'zi ojiz bolalardagi nutqi o'ziga xoslikning olimlar tomonidan o'rganilganlik holati, ularning fikrlari, shuningdek ko'zi ojiz bolalar bilan korreksion-logopedik ishning turli usullaridan misollar keltirilgan. Ta'limiy o'yinlar nutq rivojida muhim ahamiyatga egaligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ko'zi ojiz bolalar, nutq buzilishi, korreksiya, kompensatr, sensor, kinestetik, tiflopedagogika, logopediya, artikulyasiya.

**Аннотация.** В данной научной статье рассматривается степень изученности особенностей речи у слепых детей в трудах ученых, анализируются их взгляды, а также приводятся примеры различных методов коррекционно-логопедической работы с детьми с нарушением зрения. Освещается важная роль образовательных игр в развитии речи.

**Ключевые слова:** слепые дети, речевые нарушения, коррекция, компенсация, сенсорный, кинестетический, тифлопедагогика, логопедия, артикуляция.

**Abstract.** This scientific article examines the extent to which the speech characteristics of blind children have been studied by scholars, analyzes their viewpoints, and presents examples of various methods of corrective speech therapy work with visually impaired children. The importance of educational games in speech development is highlighted.

**Key words:** blind children, speech disorders, correction, compensation, sensory, kinesthetic, typhlopedagogy, speech therapy, articulation.

Inson jamiyat taraqqiyotining markaziy kuchi, har sohada bo'layotgan yangilik va o'zgarishlar uning sharofati bilandir. Inson tafakkuri kashfiyotlar yaratadi, uning mehnatisiz iqtisodiyot rivojlanishini tasavvur etib bo'lmaydi. Insonni qadrlash uning yashash, din erkinligi, hudud tanlash, ta'lim olish, kasb-hunar egallash, oila qurish, mulkka egalik va jamiyatda erkin aralashuvini ta'minlash bilan belgilanadi.

Bola- kelajagimizning soyasi emas, balki nuridir, ta'lim esa bu nurni yorituvchi chiroqdir. Har bir bola mehr va himoyaga muhtoj. Uning har tomonlama bekamu-ko'st o'sishi davlat oldida turgan vazifadir. O'sib, ulg'ayotgan har bir bola jamiyatning kelajagi taraqqiyotni belgilaydi. Ularga sifatli ta'lim berish va ijtimoiy himoyalash, milliy g'urur va teran ong sohibi bo'lish imkonini beradi. 1959-yilda BMT bosh Assambleyasi Bola huquqlari deklaratsiyasini qabul qilinishi bolalar himoyasi uchun eng dastlabki jiddiy qadam desak adashmaymiz.

Ijtimoiylashuv\_ biologik mavjudod, go'dakning tamomila oila, guruh, umuman olganda, insoniyat jamiyatini to'laqonli a'zosiga asta-sekin aylanish jarayoni sifatida, yangi ijtimoiy xulq-atvorni namunalari qanday tarzda o'zlashtirilishini va ularning namoyon bo'lishi o'zaro aloqada bo'lgan tashqi va ichki ta'sir manbalari tomonidan qanday tarzda doimo boshqarishini izohlashi kerak.

Ijtimoiy moslashish va nutq bir-biri bilan chanbarchas bog'liq jarayonlardir. Nutq insonning jamiyatga moslashuvida eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. ijtimoiy moslashish- bu shaxsning jamiyat qoidalari, me'yorlari, ijtimoiy rollar va munosabatlarga moslashish jarayonidir. Bu jarayonda inson: atrof-dagilar bilan muloqot qiladi, o'z fikr va his-tuyg'ularini bildiradi, jamoadagi o'rnini topadi va ijtimoiy tajriba oshiradi.

Ko'zi ojiz shaxslar atrof-muhitni asosan eshitish, paypaslash va kinestetik sezgilari orqali idrok etadi. Shu sababli ularning nutqida tovush, ovoz ohangi, harakat va paypaslash bilan bog'liq so'zlar ko'proq uchraydi. Vizual tasvirga asoslangan so'zlar (rang,shakl) mazmunan cheklangan



bo'lishi mumkin. Tushunchalarni shakllantirishda real predmetlar bilan amaliy tanishuv muhim rol o'ynaydi.

Ko'zi ojiz bolalarga tashkil etilgan ta'lim tizimi to'g'ri tashkil etilishi ta'lim olish huquqini ta'minlash, mustaqil bo'lish va o'ziga ishonchini oshirish, jamiyatda ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 29-avgustda 323-son buyrug'i (barcha MTT lari uchun) va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining 2025-yil 29-sentabrda 327-son buyrug'i (maxsus MTT lar uchun) asosida pedagoglarining ish hujjatlari tasdiqlanib, ta'lim-tarbiya jarayoni belgilangan talabda tashkil etilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Respublikamiz olimlaridan N.Z.Abidova Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqida kamchiliklarini bartaraf etish texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Olimaning xulosalariga ko'ra, ko'rishida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilar nutqining shakllanishi, rivojlanishi umumiy qonuniyatlarga bo'ysunadi. Biroq o'ziga xos xususiyatlarga ham egaligi aniqlangan bo'lib, bular: nutqiy rivojlanish suratlarining meyorda ko'radigan tengdoshlari bilan qiyoslanganda pastligi aksariyat hollarda nutqning ayrim komponentlari emas, balki yahlit tizim sifatida buzulishi ro'y beradi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilar nutqi rivojlanishiga nafaqat tarbiyalanuvchilarning ko'rish funksiyalarining holati, balki ularning ko'rish idroki va his qilish tajribasi shuningdek, ushbu kontingentni tarbiyalash hamda o'qitishning o'ziga xos sharoitlari uni korreksion-rivojlantirish jarayonida yetarlicha hisobga olinmasligi ham ta'sir etadi. Tarbiyalanuvchilarning ko'rish imkoniyatlari pastligi sensor etalonlarni mustaqil to'laqonli o'zlashtirishga imkon bermasligi, bu perseptiv harakat va operatsiyalarni sekinlashtirishi, predmetli tasavvurlar sifatining pasayishiga sabab bo'lishi aniqlangan.

Imkoniyati cheklangan har qanday toifadagi bolalar bilan ishlashda kompleks yondashuv muhimligi shundaki, bolalardagi birlamchi va birlamchi nuqson oqibatida kelib chiqqan ikkilamchi muammolarni bartaraf etish samarali amalga oshiriladi. D.SH.SHokirova kompleks yondashuv bolaning rivojlanish xususiyatlarini har tomonlama chuqur tekshirish, baholash va korreksiyalash jarayonida mutaxassislarning o'zaro kollaboratsiyasi hamda konsinusini ta'minlashdir, deb ta'kidlaydi.

Ko'zi ojiz bolalar nutqini korreksiyalash usullari maxsus pedagogic (tiflopedagogik) va logopedik yondashuvlar asosida olib boriladi. Ushbu usullar bolaning saqlangan analizatorlari va individual imkoniyatlariga tayangan holda nutqni rivojlantirishga qaratiladi:

1. Sensor kompensator yondashuv ko'rish kompensatsiyasi eshitish, tovushlarni farqlash, nutqni idrok etish, paypaslash, predmetlarni ushlab ko'rish orqali so'z ma'nosini mustahkamlash kabi sezgilardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

2. Og'zaki nutqni boyitish usullari suhbat, savol-javob, ertak va hikoyalarni tinglash va qayta aytib berishni tavsiflab gapirish, lugatni oshirish orqali amalga oshiriladi.

3. Artikulyasion nutq apparati harakatchanligini maxsus uqalash va statik, dinamik mashqlar orqali harakatchanligini oshirish mumkin.

4. Tiflologopedik hamkorlik ishlari deganda ularning korreksion ish rejasida birini ikkinchisi to'ldirib turishi talab etiladi.

**Natijalari.** Taniqli psixolog olim L.S.Vigotskiy ta'limning asosiy vazifasi g'ayritabiiy bolani hayotga olib kirish, uning ijtimoiy dislokatsiyasini tuzatish, ya'ni insonning ijtimoiy qiyofasini belgilaydigan xatti-harakatlardagi og'ishlarni bartaraf etish. Shu munosabat bilan u shunday deb yozgan edi: "Ehtimol, ertami-kechmi insoniyat ko'rlikni ham, karlikni ham, aqldan ozishni ham yengadi. Lekin ularni tibbiy va biologik jihatdan emas, balki ijtimoiy va pedagogik jihatdan ancha tez mag'lub etadi". L.S.Vigotskiy g'ayritabiiy bola tanasining kompensatsion qobiliyati g'oyasini faol rivojlantirdi. U g'ayritabiiy bolalar bilan tuzatish – olim pedagogik ishning boshlang'ich nuqtasini bola tanasining saqlanib qolgan, anomaliyadan eng kam ta'sirlangan yoki unga ta'sir qilmagan holati deb hisobladi".

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining rivojlanishining o'ziga xos xususiyati paralingvistik aloqa vositalarini noto'g'ri tushunish va ulardan foydalanishda ham namoyon



bo'ladi, chunki vizual nuqson yuz va pantomimik pozalarni idrok etishni cheklaydi va foydalanadigan harakatlar va ekspressiv vositalarni taqlid qilishni qiyinlashtiradi.

Ko'rish qobiliyatining yetishmasligi bolalar nutqining rivojlanishida ham namoyon bo'ladi. B.G. Ananyev, A.R. Luriya, G.L. Rozengard-Pupko va boshqalarning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, nutq shakllanishining dastlabki bosqichlarida obyektning idrok etishning tasviri va jarayonlari muhim rol o'ynaydi. Har bir so'zning dastlabki hissiy tasviri yoki tasviri bor va bolaning so'z boyligining o'sishi bevosita obyektlarning tasvirlari va ularni bildiruvchi so'zlar o'rtasida ko'p va xilma-xil aloqalarning shakllanishi bilan bog'liq (L.S.Vigotskiy).

N.Abidova "Ko'rishda nuqsonni bo'lgan bolalar og'zaki nutqida kamchiliklarni bartaraf etish texnologiyalari" mavzusidagi tadqiqotida binokulyar ko'rish va ko'z-harakat funksiyalarining buzilishi predmetlarning shakli, kattaligi, muayyan makonda joylashishini idrok etish hamda monokulyar ko'rishda makromakonda hajmli predmetlarni ajratish, obyektlar o'rtasidagi masofani, ularning joylashishi va o'zaro munosabatlarini nisbatlashda murakkabliklar aniqlangan. Ma'lumki, perseptiv imkoniyatlarning kamayishi predmetli-amaliy harakatlarning rivojlanishiga ta'sir o'tkazadi. Ko'rish darajasi va o'z-o'zini nazorat qilishning yetarli emasligi voqealardagi predmet va hodisalar bilan harakatlar natijaliligi kamayishiga olib keladi. Predmetli harakatlar bilan ko'rgazmali-obrazli harakatlar natijaliligi o'rtasida uzilish kuzatiladi. Bolalar o'zlarining predmetli harakatlarini o'z nutqida tavsiflashga qiynaladi, harakatlarning verballigi kuzatiladi, deb ta'kidlangan.

**Muhokama.** O'zbekistonda maxsus ta'lim sohasi bo'yicha bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelingan. Bu tadqiqotlarda mavzuga oid turli masalalar muhokama qilingan. Xususan, R.Shomahmudova maxsus ta'lim nogiron va maxsus ehtiyojli ta'lim oluvchilar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar va o'smirlarni rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'i nazar, oilaning faol ishtirokida, xususan, bolaning ehtiyojini qondirishga va ijtimoiy hayotga moslashtirish va umumta'lim tizimiga to'liq qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimi ekanligini deb ta'rif berib o'tgan.

L.R.Mo'minovaning tadqiqotlari maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarning nutq nuqsonlarini korreksiyalashga qaratilgan pedagogik faoliyatning nazariy asoslarini boyitdi. Uning ilmiy ishlari doirasida bolalarni logopedik tekshirish va o'qitishning o'ziga xos metodikasi ishlab chiqilib, amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, olim tomonidan inklyuziv ta'lim yo'nalishida berilgan bir qator tavsiyalar amaliy samaradorligini isbotlagan.

L.Sh.Nurmuhammedovaning "Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari" ilmiy tadqiqotlari doirasida oilada nogiron farzandi bor ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari, qiyinchiliklari va ijtimoiy-pedagogik, psixologik ko'rsatmalarga muhtojligi tahlil qilingan va bir qator ilmiy natijalar olingan.

Ko'zi ojiz bolalarda nutq rivojlanishi umumiy psixik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ko'rish analizatorining yetishmasligi natijasida nutqiy faoliyatda turli xil buzilishlar kuzatiladi. Ayniqsa, so'z boyligining kamligi, grammatik tuzilmalarning noto'g'ri qo'llanishi, fonematik eshituvning yetarlicha rivojlanmaganligi va bog'lanishli nutqdagi qiyinchiliklar ko'zi ojiz bolalar nutqiga xos muammolar sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'limiy o'yinlar bolaning tabiiy ehtiyojlari va qiziqishlariga mos kelgan holda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Psixolog olimlar (L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev, D.B. Elkonin) fikriga ko'ra, o'yin faoliyati bolalik davrida yetakchi faoliyat bo'lib, aynan o'yin jarayonida bolaning nutqi, tafakkuri, xotirasi va ijtimoiy tajribasi rivojlanadi.

Ko'zi ojiz bolalar uchun ta'limiy o'yinlar:

- sezgi organlari (eshitish, paypaslash, kinestetik sezgi) faoliyatini faollashtiradi;
- kompensator mexanizmlarning rivojlanishiga yordam beradi;
- nutqiy faollikni oshiradi;
- muloqotga kirishish ehtiyojini kuchaytiradi.

**Nutq kamchiliklarini korreksiyalashda o'yinlarning ilmiy asoslari**



Logopedik amaliyotda ta'limiy o'yinlar nutq kamchiliklarini korreksiyalashda quyidagi ilmiy tamoyillarga asoslanadi:

1. **Kompensatorlik tamoyili** – ko'rish yetishmasligi o'rnini boshqa analizatorlar orqali to'ldirish. O'yin jarayonida eshitish, teginish va harakat sezgilari orqali nutqiy tushunchalar shakllantiriladi.

2. **Faollik va motivatsiya tamoyili** – o'yin bolaning qiziqishini oshirib, uni nutqiy faoliyatga faol jalb etadi.

3. **Tizimlilik va izchillik tamoyili** – o'yinlar nutqning barcha komponentlarini (fonetik-fonematik, leksik, grammatik va bog'lanishli nutq) bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratiladi.

4. **Individual yondashuv tamoyili** – har bir bolaning ko'rish darajasi, nutq buzilish turi va psixofiziologik xususiyatlari hisobga olinadi.

O'yin bola o'zligining namoyon bo'lishi, va uning yanada shakllanishi, takomillashishi uchun eng muhim usulidir. O'yinlarning bolalar hayotida muhim o'rni bor va alohida ahamiyatlidir. O'yinlar asosan mehnat va ta'limiy faoliyatlarda yetakchi o'rin egallaydi. Bu faoliyatlar bilan doimiy ravishda uzviy bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etgan o'yinlar boladagi barcha mavjud xususiyatlarni, imkoniyatlarni ishga tushuradi. Bola harakatlanadi, muloqotga kirishadi, fikrlaydi va shu bilan birga idrok etadi, ehtiyojini qondiradi, bajarayotgan ishini oqibatini anglaydi.

Zamonaviy pedagogikada Y.A.Komenskiyning pedagogik g'oyalari, shu bilan birga K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g'oyalari hamiyatlidir.

O'yin jarayonida bolalar eng avvalo o'z ehtiyojlarini qondiradilar, tevarakatrofdagi borliqni o'z o'yinlarida aks ettiradilar. O'yin jarayoni shunaqa bir keng qamrovli jarayonki bunda bolalarning intellekti shakllanadi, bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi.

#### **Ta'limiy o'yinlarning nutqni rivojlantirishdagi imkoniyatlari**

Ta'limiy o'yinlar orqali:

- tovushlarni farqlash va to'g'ri talaffuz qilish;
- so'z boyligini kengaytirish;
- grammatik tuzilmalarni mustahkamlash;
- bog'lanishli nutqni rivojlantirish mumkin.

Ayniqsa, predmetli, syujetli-rolli, didaktik va eshituvga asoslangan o'yinlar ko'zi ojiz bolalar nutqini korreksiyalashda yuqori samaradorlikka ega.

Xulosa qilib aytganda, ta'limiy o'yinlar ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashning ilmiy asoslangan, samarali va amaliy ahamiyatga ega vositasi hisoblanadi. Ular bolaning psixik rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, nutqiy faolligini oshiradi hamda ijtimoiy moslashuviga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Nishanova Z.T. va boshq. Rivojlanish psixologiyasi. edagogik psixologiya. (darslik). - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018.-B.139-140

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 29-avgustdagi 323-son buyrug'I, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining 2025-yil 29-sentabrdagi 327-son buyrug'i

3. N.Z.Abidova. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqida kamchiliklarini bartaraf etish texnologiyalari. Phd dissertatsiya avtoreferati. Toshkent-2018

4. Sh.D.Shokirova Kompleks yondashuv asosida lab va tanglayning tug'ma kemtiklari bo'lgan bolalarda korreksion-logopedik ishni takomillashtirish (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati (17-b). T. 2024-yil

5. Андреев С.Н. Профессиональная ориентация и обучение детей с ограниченными возможностями здоровья в организациях среднего профессионального образования. Профессиональная ориентация инвалидов и лиц с ОВЗ в системе многоуровневого образования: организационные и методические аспекты: //Материалы



Всероссийской научно-практической конференции. – Москва, 18 ноября 2016 года. – С. 54-55.

6. Каракулова Е.В. Педагогическая технология преодоления системного недоразвития речи с учетом формирования эмоциональной сферы у дошкольников с функциональными нарушениями зрения: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Екатеринбург, 2011. – С. 11

7. Abidova N. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar og‘zaki nutqida kamchiliklarni bartaraf etish texnologiyalari: Ped.fan.f.d-ri.(PhD) diss.... – Toshkent, 2018. – B.10. TDPU.uz

8. Shomahmudova R.Sh. Maxsus va inklyuziv ta‘lim. Xalqaro va milliy tajribalar.Uslubiy qo‘llanma.Toshkent. “Chashma print” 2011. -213 b

9. L.Muminova (va boshqalar); O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika un-ti. – Toshkent: Noshir, 2012. – 88 b.

10. Nurmuhammedova L.Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. Ped.fan.nomz...diss. – Toshkent, 2005. – 156 b.